

**Xalq bankining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish
natijalari haqidagi yillik
HISOBOT**

I. Umumiy ma'lumot

Ichki nazorat va komplayens departamentiga 2024-yil davomida aloqa kanallari orqali jami 9 ta korrupsiya faktlariga doir murojaat kelib tushgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Murojaatlar yuzasidan bank tomonidan belgilangan tartibda xizmat tekshiruvlari o'tkazildi.

O'rganish natijalariga ko'ra, 5 ta murojaat o'z tasdig'ini topmadi, 4 ta murojaat bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilgan.

Shuningdek, "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish to'g'risidagi" Nizom talablari asosida joriy yilda xabar (Korrupsiyaga urinish yuzasidan) bergan fuqaroga 1,2 mln so'm miqdorida pul mablag'i bilan rag'batlantirildi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida bankda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, Korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati ishlab chiqilib amaliy ishlar olib borildi.

Bankning barcha xodimlari ishtirokida o'quv seminarlari tashkil etilib, unda bank tizimida aniqlanayotgan korrupsion holatlar va ularni sodir etishda aybdor xodimlarga ko'rilayotgan qat'iy choralar faktlari bilan tanishtirib, bu jinoyatni sodir etgan xodim jazosiz qolmasliklari tushuntirilmoqda hamda murojaatlar asosida korrupsiya holati aniqlangan sohada inson omilini kamaytirish (avtomatlashtirish) choralari ko'rilmogda.

**Ichki nazorat va komplayens
departamenti direktori v.v.b**



A.Boyqobilov